

ZIG‘IRDOSHLAR VA PISTADOSHLAR OILASIGA MANSUB O‘SIMLIKLARNING MORFOLOGIK TUZILISHI VA AHAMIYATI, TARQALGAN JOYLARI.

Yigitaliyeva Gulhayoxon Murotali qizi
yigitaliyevagulhayo0@gmail.com

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pistadoshlar va Zig‘irdoshlar oilalarga mansub o‘simliklarni tuzilishi va foydali xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan .

Kalit so‘zlar: Linaceae, Linum, Anacardiaceae,

Zig‘irdoshlar - *Linaceae* oilasiga 6 ta turkum va 250 taga yaqin tur kiradi . O‘rta Osiyoda 1 ta turkumga oid 9 turi, O‘zbekistonda esa bitta turkumga mansub 5 turi. Asosan o‘t o‘simliklar , yarimbutalar va butalar kiradi. Ular ayniqsa, mo‘tadil va subtropik iqlimli hududlarda tarqalgan .Barglari oddiy , bandsiz , navbat bilan yoki qarama-qarshi joylashgan , yonbargchali yoki yonbargchasiz . Gullari ikki jinsli, aktinomorf. Kosacha va gultojibarglari (4)-5 ta . Urug‘chisi 5 tadan . Tugunchasi ustki . Mevasi ko‘sakcha.

Gul formulasi: $Ca_5 Co_5 A_{\infty} G(5)$.

Pistadoshlar — *Anacardiaceae* oilasiga 80—85 turkum va 600 ga yaqin turlar kiradi. Ular asosan tropik va subtropik hamda issiq mo‘tadil iqlimli hududlarda tarqalgan. O‘rta Osiyoda 2 turkumga mansub 3 turi, O‘zbekistonda esa 2 turkumga oid 2 turi o‘sadi. Oila 5 ta oilachaga bo‘linadi. Bu oilaga bir yoki ikki uyli daraxt va butalar kiradi. Barglari oddiy yoki murakkab, yonbargchasiz to‘kiladigan yoki doim yashil, shoxlarida smola yo‘llar bor. To‘pgullari ro‘vak. Gullari mayda, ikki yoki bir jinsli, aktinomorf. Kosacha va gultojibarglari 3—5 tadan, ba‘zan gulqo‘rg‘oni oddiy. Changchisi 5 yoki 10 ta, ba‘zan ko‘p yoki aksincha kamroq. Tugunchasi ustki, bir yoki 3—5 ta erkin yoki qo‘shilib o‘sgan urug‘chibarglardan iborat. Mevasi danakcha yoki yong‘oqcha.

Gul formulasi: $Ca_{3-5} Co_{3-5} A_{3-10} G_{1-(3-5)}$.

Zig‘ir (*Linum*) turkumining O‘rta Osiyoda 9 turi, O‘zbekistonda 5 turi o‘sadi. Turkumga bir yillik va ko‘p yillik o‘t o‘simliklar kiradi. Asosan tog‘li hududlarda o‘sadi. Shundan bitta moyli zig‘ir (*L.humile*) madaniy o‘simlik sifatida ekiladi

Poyasi shoxlangan, nashtarsimon barglar bilan qalin qoplangan. Barglari oddiy, navbat bilan yoki qarama-qarshi bo‘lib joylashgan. Gullari aktinomorf, havorang, sariq, ba‘zan pushti, qo‘shaloq gulqo‘rg‘onlidir. Kosachasi va gultojibargi 5 tadan. Changchisi 10 ta bo‘lib, 5 tasida normal changdonlar bor, qolgan 5 tasida changdonlar bo‘lmaydi. Onalıkları qo‘shilib o‘sgan 5 ta mevachabargdan iborat. Mevalari -ko‘sakcha yoki danakcha. Urug‘ida endosperm bolmaydi. Urug‘chisi 5 ta.

Zig‘irning ayrim turlari haqida ma‘lumot.

1. Katta gulli zig‘ir - balandligi 50 sm gacha past bo‘lgan yillik juda yumshoq, chiroyli va doimiy gullaydigan o‘simlik. Katta gulli zig‘ir gullari diametri 4 sm gacha va turli xil ranglarga ega - oq, qizil, pushti, ko‘k, ba‘zi navlar gulning markazida quyuproq ko‘zlarga ega. Gullar faqat quyoshli havoda ochiladi. Katta gulli zig‘ir chiroyli, katta guruhlarda ayniqsa ta‘sirchan ko‘rinadi, kompozitsiyaga kiritilgan, kesish uchun mos keladi. Katta gulli zig‘ir - bu o‘simlik, urug‘lar to‘g‘ridan-to‘g‘ri may oyida yoki qishdan oldin ochiq erga ekilgan bo‘lishi mumkin. Iyundan sentyabrgacha gullaydi.

2. Zig‘ir ko‘p yillik o‘simlik - diametri 2 sm gacha bo‘lgan ko‘k yoki oq gullar bilan 50 sm gacha bo‘lgan ko‘p yillik o‘simlik. Iyun-iyul oylarida gullaydi.

3. Zig‘ir sariq - 20 dan 40 sm gacha bo‘lgan ko‘p yillik o‘simlik, diametri 3 sm gacha yorqin sariq gullar bilan. Iyun-iyul oylarida gullaydi.

4. Zig‘ir avstriyalik - balandligi 50 sm gacha bo‘lgan ko‘p yillik, ko‘k rangli besh bargli gullar. May-iyun oylarida gullaydi.

5. Zig‘ir toridi - sariq gullar taxminan 50 sm uzunlikdagi pedikelda 10-20 dona soyabonli inflorescences ichida to‘planadi

Pistadoshlar oilasining O‘zbekistonda tarqalgan turkumlaridan biri **Totum** (*Rhus*) kichik daraxt yoki butalardan iborat. Barglari navbat bilan joylashgan, oddiy, uch bo‘lakchali yoki patsimon. Gullari bir jinsli yoki ikki jinsli, bir yoki ikki uyli. Kosacha va gultojibarglari 5 tadan, changchisi 5 ta. Mevasi mayda, qizil rangli danakcha. O‘rta Osiyoda, shu jumladan O‘zbekistonda 1 ta turi totum (*Rh. coriaria*) o‘sadi. U kichik, kam shoxlangan daraxt yoki buta. Bo‘yi 1—3(5) m gacha yetadi. Barglari toq patsimon, uzunligi 15—18 sm. Bargchalari tukli, bandsiz, cho‘ziq-tuxum sim on yoki nashtarsimon, chetlari yirik kungirali-arrasimon. Gullari ro‘vakda o‘rnashgan. Changchi va urug‘chi gullari alohida-alohida ro‘vaklarda joylashgan. Changchisi 5 ta, ba‘zan 10 ta. Mevasi asosan sharsimon, shirali. O‘zbekistonda Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining tog‘li tumanlarida o‘sadi.

Totum barglarida tanid moddasi bor. Totumdan olingan tanid tibbiyotda, vinochilikda, to‘qimachilik

sanoatida ishlatiladi. Totum barglari va novdalaridan qora, mevalaridan qizil, ildizpo‘stlog‘idan jigarrang bo‘yoqlar olinadi.

Pista (*Pistacia*) turkumi vakillari daraxt yoki buta. Barglari ko‘pincha 3 ta bargchadan iborat, kamdan-kam bargchalari bandsiz, qalin, qattiq, silliq, och yashil. Keng ellipssimon yoki dumaloq tuxumsimon. Gullari juda mayda, bir jinsli, ikki uyli. Changchisi 4—5 ta. Urug‘chisi 3 mevbargchali, tugunchasi ustki, bir uyali. O‘rta Osiyoda 2 turi, O‘zbekistonda esa 1 turi xandon pista — *P. vera* o‘sadi (3.33-rasm). U daraxt yoki buta, bo‘yi 5—7 m. Barglari ko‘pincha 3 bargchali, bargchasi yaltiroq yashil, ellipssimon yoki dumaloq-tuxumsimon, qisqa bandli. Changchi gullari tig‘iz, murakkab ro‘vakda, urug‘chi gullari esa siyrak ro‘vakda to‘plangan. Mevasi cho‘ziq-nashtarsimon, ingichka-tuxumsimon, keng tuxumsimon va dumaloq. O‘zbekistonda Bobotog‘ va Janubi-G‘arbiy Hisorda, Turkiston tog‘ tizmalarida va G‘arbiy Tiyonshanda tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Botanika_Morfologiya,_Anatomiya,_Sistematika,_Geobotanika_O‘_Pratov
2. Dorivor o‘simliklar florasini va sistematikasi fanidan amaliy mashg‘ulot.
3. Botanika. Anatomiya, Morfologiya, Sistematika (S. Mustafayev).

